

Komil inson tarbiyalashda Amir Temur o'g'itlarining ahamiyati

Dilafruz Dilmurodjon-qizi Sobirjonova
Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur o'g'itlarining tarbiyaviy ahamiyati tahlil etiladi. Buyuk sarkarda va davlat arbobining yosh avlodni vatanparvarlik, adolat, mardlik, hamda ma'naviy yetuklik ruhida tarbiyalashga qo'shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, uning pand-nasihatlarini va o'g'itlarining bugungi kundagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, tarbiya, ma'naviyat, o'g'it, pand-nasihat, vatanparvarlik, adolat

The importance of Amir Temur's teachings in raising a perfect person

Dilafruz Dilmurodjon-kizi Sobirjonova
Scientific advisor: M.M.Mirzakarimova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article analyzes the educational significance of Amir Temur's teachings. The contribution of the great commander and statesman to raising the younger generation in the spirit of patriotism, justice, courage, and spiritual maturity is highlighted. The significance of his advice and teachings today is also revealed.

Keywords: Amir Temur, education, spirituality, teaching, advice, patriotism, justice

Tarixdan hammamizga ma'lumki Movarounnahr 1 yarim asr Mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan va ana shu yillarda Movarounnahrda ilm, madaniyatga juda katta putur yetkazilgan. Ammo XIV asrning boshlariga kelib sekin asta mo'g'ullardan ozod bo'la boshlagan Movarounnahrni Amir Temur o'z zimasi oldi va Movarounnahrni asta oyoqqa qoydi, XIV asrning ikkinchi yarimida esa Amir Temur ilm-fanga va madaniyatga alohida e'tibor qaratib aynan mana shu asrda O'rta Osiyoni Sharq uyg'onish davri diyilishigacha olib kela oldi.

Shuningdek buyuk Amir Temur XIV asrda yoqgan ma'shala hozirgacha o'z o'rnini saqlab kelmoqda, aynan bizning XXI asrda ham Muhtaram Prezidentimiz

Sh.Mirziyoyev ilm-fanga va madaniyatga juda katta e'tibor qaratmoqda, shu bois ham ta'lim maskanlarida ko'plab o'zgarishlar olib borilmoqda va ta'lim jarayonlariga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki ko'proq tarbiya va madaniyat ta'lim jarayonida berib boriladi. Qiziquvchanlik va o'rganish istagini rivojlantirish bolada maktabning birinchi kunidan boshlanadi [5]. O'quvchilarda asta sekin vatanga muhabbat, bilimga iltilish va bilimdan ozuqa olishga ehtiyoj shakllanib boradi. Shu tariqa yoshlar o'z tarixini bilishga qiziqqa boshlashadi, mana shu paytda avvalo ustozlar, buyuk simollarimiz haqida ma'lumotlar bera boshlashadi. Ulardan Amir Temurning asarlari, o'g'itlari misolida o'quvchi-yoshlarni ongini ta'lim, tarbiya tushunchalari bilan to'ldirishadi.

Amir Temurning ilm olishi yetti yoshidan boshlangan. Bu uning ilimda bo'lgan birinchi faoliyati bo'lishga qarmasdan uning ilmga bo'lgan qiziqishi uni ilmda peshqadamlikka olib chiqadi. Yosh Temur bolalik kezlari dayoq o'zini harbiy-texnikaviy mashg'ulotlarda ham sinab ko'radi va o'z salohiyati bilan omma e'tiboriga tushadi. Jang sa'natini mukammal egallaydi. O'rgangan bilimlari ostida Amir Temur e'tiqodi mustahkam, aql-zakovatli, adolatli bo'lib yetishadi. Yana aytish mumkinki uning juda ko'p kitoblari jahonga mashhur bo'lib ketgan, jumladan "Temur tuzuklari" kitobi har bir rahbarni ish faoliyatni boshlashda ham juda katta ko'rsatmalar va yordam bergan. "Temur tuzuklari" asarida nafaqat jang sa'nati balki davlatni qanday boshqarish, odob-axloq me'yorlari, yoshlarni ma'naviyatga boshlovchi g'oyalar keng yoritilib berilgan va o'g'itlar ham guruhlariga ko'ra vazifalangan. Ular "Din va shariatga doir", "Davlat va uni idora etish", "Kengash o'tkazishga oid", "Podshox va vazirlarga doir" bo'lgan va hammasi ilm madaniyatni gullatishda katta yordam bergan. Amir Temur hayotini katta qismini ilm, ma'daniyatga va jang maydonlariga bag'ishlaganligi uchun, biz yoshlarga bir biriga o'xshamaydigan o'g'itlarni meros qilib qoldira olgan va buyuk bobomiz har vaqt "Insonparvarlik va mardlikni alloh ham, xalq ham ulug'laydi", degan hikmatli so'zga amal qilgan va shu o'git asosida ko'plab shaharlar va insonlarni zabt eta olagan, shu jumladan har bir yosh avlod hozirda yoddan biladigan og'itlari ham oz emas ulardan biri, "Bo'yningga qilich kelsa ham rost gapir" bu o'git juda sodda eshinishi mumkun, ammo buning zamirida juda katta ma'no va ta'lim-tarbiya yotadi va har bir tinglovchi o'quvchiga katta ta'sir o'tkiza oladi deb o'ylayman.

Amir Temur haqida yana shuni aytish mumkinki, u qayerni bosib olmasin o'sha yerga islom dinini targ'ib qilgan va ta'limga, madaniyatiga alohida e'tibor berib, u joylarni gullatib yashnatgan. Amir Temur har doim boshqaruvda tavakkalikni xush ko'rgan va bu hislatini "Temur tuzuklari" kitobida ham keltirib o'tgan. U har gal jangu jadaldan oldin vazirlari va sarkardalari bilan maslahatlashgan ammo ba'zida Temurga maslahatchilari jangni boshlamasliklarini kuchlari yetmasligini aytganlar ammo Temur shu paytlarda "Islom dinida muqaddas bo'lgan Quroni Karimni" oldiga

olib vazirlari va sarkardalariga, agar Quronni bir ochishimda mana shu boshlamoqchi bo'lgan jangimizni hayirli qiluvchi oyat chiqsa ya'ni jangga dalolat beruvchi oyatni ochsam jangni boshlaymiz va zafarlar qozonib qaytamiz deb ularni ilohomlantirgan va shu bois ham ko'plab jangu jadallardan zafarlar qozonib qaytganlar. Amir Temur hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmagan. O'z "Tuzuklari"da g'azab va qattiq qo'llik bilan qilingan muomalani Tangri taoloni g'azabiga duchor bo'lishi, o'z holini tang qilishidir, deb yozgan. Shu bois ham u "Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritar" deb ta'kidlagan va bu o'gitlar Temurni hayoti davomida tajribasida sinalgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash keraki, Amir Temurning o'gitlari va pand-nasihatlari bugungi kunda ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan. Buyuk sarkarda yosh avlodni vatanparvarlik, adolat, jasorat, matonat va ma'naviy yetuklik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikri va qarashlarida davlat boshqaruvi bilan bir qatorda insoniylik, halolik va intizom masalalari ham muhim o'rin egallagan.

Amir Temur o'gitlarini nafaqat o'sha davr uchun balki XXI asr jamiyati uchun ham dolzarb bo'lib, yoshlarni komil inson etib tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Shu bois, uning boy ma'naviy merosini o'rganish va yoshlar ongiga singdirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Temur tuzuklari" (forschadan Alixonto'ra Sog'uniy va Habibulla Karomatov tarjimasi), 1991,1996;
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.

8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. *Science and Education*, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ УЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(7), 11-15.
11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. *Technical Science Integrated Research*, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 8-11.
13. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. *Перспективы науки и образования*, (6 (72)), 420-436.
14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAКТИK ASOSLARI. *Nova. Pub*, 1-128.
15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE "MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. *Science and Education*, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. *Science and Education*, 5(4), 278-282.
18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKOORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.

22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.

23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY, 1(1), 63-65.

24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. *Telematique.-2022.-S*, 7128-7131.

25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 216-222.

26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. Академические исследования в современной науке, 2(8), 92-94.

27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.